

Partiya tarixi

2008 yil 20 iyun kuni O‘zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib o‘tib, ushbu ikki partiya negizida yangi O‘zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O‘zMTDP) tashkil etildi.

Qurultoyda yangi partyaning Markaziy Kengashi va Nazorat-taftish komissiyasi tarkiblari saylandi.

2008 yil 21 iyun kuni O‘zMTDP Markaziy Kengashining II Plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenumda Markaziy Kengash Ijroiya Qo‘mitasi a’zolari 21 nafardan iborat tarkibda saylanib, ular orasidan Markaziy Kengash Ijroiya Qo‘mitasi raisi va uning Mafkuraviy ishlari, Tashkiliy va kadrlar ishlari, Xotin-qizlar masalalari hamda Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha o‘rribbosarlari saylandi.

2008 yil 4-16 iyul kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ikki partyaning birlashuv Konferensiyalari o‘tkazilib, ular negizida yangi partiyani tuzish bo‘yicha tashkiliy guruh shakllantirildi.

2008 yil 11 avgust kuni O‘zMTDP O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tdi.

2008 yil 13 avgust kuni O‘zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O‘zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi fraksiyalarining qo‘shma ta’sis yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zMTDPning yangi fraksiyasi tuzildi.

2008 yil 9 sentyabrdan boshlab joylarda hududiy partiya tashkilotlarining ta’sis Konferensiyalari va Plenumlari o‘tkazildi. Jumladan, barcha hududlarda O‘zMTDP hududiy partiya tashkilotlarining ta’sis Konferensiya va Plenumlari o‘tkazildi.

Ularda Kengash, Nazorat-taftish komissiyasi, Kengash Ijroiya Qo‘mitasi tarkibi tasdiqlandi hamda Ijroiya Qo‘mitasi raisi va uning o‘rribbosarlari saylandi. Shuningdek, joylarda tuman (shahar) partiya tashkilotlarining ta’sis Konferensiya va Plenumlari o‘tkazilib, Kengash, Kengash Ijroiya Qo‘mitasi tarkibi tasdiqlandi hamda Ijroiya Qo‘mitasi raislari saylandi.